

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Alisher Navoiy nomidagi  
 Toshkent davlat o‘zbek tili va  
 adabiyoti universiteti rektori  
 Sh.Sirojiddinov



2021 yil “     ”     \_\_\_\_\_

**60111600 – O‘zga tili guruhlarda o‘zbek tili**  
**bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining fanlar kesimida**  
**kasbiy kompetensiyalari**

**JADVALI**

| T/r                       | Fan nomi                                  | Fan kodi*        | Fan qaysi kursda o‘qitilishi | Fan yordamida egallanadigan zaruriy kasbiy kompetensiyalar  |
|---------------------------|---|------------------|------------------------------|---|
| <b>1. Majburiy fanlar</b> |   |                  |                              |   |
| 1.1                       | Falsafa                                   | 302FALS 1<br>2   | 1                            | – dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lish, ularni mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish.   |
| 1.2                       | O‘zbekistonning eng yangi tarixi          | 302O‘EYT<br>1 2  | 1                            | – gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish.  |
| 1.3                       | Intellektual va ma‘naviy tarbiya asoslari | 302IMTA<br>1 4   | 1                            | – fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lish.  |
| 1.4                       | Xorijiy tillar (tillar bo‘yicha)          | 302XT 1, 2<br>18 | 1, 2                         | – xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, xorijiy hamkorlar bilan og‘zaki va yozma muloqot qila olish;<br>– sharq tillarda muloqot qilish va axborot-kommunikatsiya |

|     |  |                  |      |  |
|-----|--|------------------|------|--|
|     |  |                  |      | texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.   |
| 1.5 | Umumiy pedagogika                              | 302UP 2 6        | 2    | <p>“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining ta'lim tizimini takomillashtirishga oid qaror va farmoyishlarini hamda davlat ta'lim standartlarini mukammal bilish;</p> <p>– o'qitadigan o'quv predmeti bo'yicha darsni tashkil etish metodikasini, pedagogik va kasbiy muloqot nazariyasi va amaliyotini to'liq o'zlashtirish.</p>  |
| 1.6 | Umumiy psixologiya                             | 302UPS 3 4       | 3    | - yosh psixologiyasi va fiziologiyasini to'liq o'zlashtirish.  |
| 1.7 | Tilshunoslik asoslari                          | 302TA 1 6        | 1    | – tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar, tizimli yondashuv usullarini lingvodidaktikaga tatbiq etish.   |
| 1.8 | O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi | 302O'RQT 1, 2 16 | 1, 2 | o'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasini yaxshi bilish, bu bilimlardan lingvodidaktik jarayonda foydalana olish.   |
| 1.9 | Davlat tilida ish yuritish va monitoring       | 302DTIY 3 4      | 3    | <p>– davlat tilida ish yuritish va monitoring asoslarini chuqur o'rganish;</p> <p>– me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan o'z professional faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;</p> <p>– ta'lim jarayonining dolzarb muammo va masalalariga doir axborotlarni tahlil qilish, ularga o'z munosabatini bildirish;</p> <p>– vazirlik va idoralarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga</p> |

|      |                                   |                      |      |   |
|------|-----------------------------------|----------------------|------|---|
|      |                                   |                      |      | rioya etilishini ta'minlash masalalarini chuqur bilish.   |
| 1.10 | O'zbek adabiyoti                  | 302O'A 1,<br>2 16    | 1, 2 | – o'zbek adabiyoti tarixi, ta'limoti va nazariyalari, yirik namoyandalari, namunalarini bilish, bu bilimlarni o'zga tilli guruhlarda adabiy o'qish fanini o'qitishda qo'llash.  |
| 1.11 | Hozirgi o'zbek adabiy tili        | 302HO'AT<br>1, 2 14  | 1, 2 | – hozirgi o'zbek adabiy tilini yaxshi bilish, jumladan, til iyerarxiyasidagi fonetik-fonologik, leksik, semantik va grammatik sathlarga mansub birliklarning adabiy til uchun me'yor bo'lgan va me'yor bo'lmagan belgi-xususiyatlarini qiyosan o'rganish, tahlil qilish, bu sohadagi munozarali nuqtalarni aniqlash; hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari, adabiy til taraqqiyotini belgilovchi ichki (lingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) omillarni bilish, hozirgi o'zbek adabiy tilining sistemaviy va strukturaviy xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lish;<br>– o'zbek tilshunosligining, xususan, fonologiya, grafika, orfografiya, leksikologiya, semasiologiya, morfologiya, sintaksis kabi sohalarining so'nggi yutuqlaridan, shuningdek, jahon va rus tilshunosligidagi muhim ma'lumotlardan o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili fanini o'qitishda foydalana olish. |
| 1.12 | O'zbek tilini o'qitish metodikasi | 302O'TO'<br>M 3,4 18 | 3, 4 | – o'zbek tili va adabiy o'qish fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlariga asoslangan holda nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlari olib borilishini ta'minlash;<br>– o'zbek tili va adabiy o'qish  |

|      |                                     |                 |   |   |
|------|-------------------------------------|-----------------|---|---|
|      |                                     |                 |   | <p>fanlarini o'qitish, xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or va samarali usullarni tanlay olish, amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;</p> <p>– o'zbek tili va adabiy o'qish fanlarini o'qitish, xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;</p> <p>– o'zbek tili va adabiy o'qish fanlariga oid nazariy bilimlarini muntazam takomillashtirib borish, mazkur fanlarning dolzarb muammolarini ilg'ay olish, pedagogik faoliyatida ularni ijobiy hal qila olish.</p>   |
| 1.13 | Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari | 302IIIYA 3<br>6 | 3 | <p>– ta'lim jarayonida tashkiliy masalalarning, zamonaviy obyektiv baholashning amalga oshirilishini ta'minlash;</p> <p>– o'quvchilarni fanlar bo'yicha olimpiadalarga, turli musobaqalarga, ilmiy konferensiya va festivallarga tayyorlash, ochiq darslar tashkil qilish, fan to'garaklari ishlariga rahbarlik qilish;</p> <p>– ilmiy va ijodiy ish yozish malakasini egallash; ta'limiy faoliyatga oid ilmiy-uslubiy maqola va tezislar, ishlanmalar, tavsiyalar tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;</p> <p>– internet tarmog'i orqali o'zbek tili va adabiyoti faniga oid eng yangi ilmiy yutuqlar, ilmiy tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy ilmiy-metodik manbalar bilan muntazam tanishib borish.</p> |
| 1.14 | Madaniyatlararo kommunikatsiya      | 302MK 3 8       | 3 | <p>– madaniyatlararo kommunikatsiya, ya'ni turli xil madaniyatlarning ikki yoki undan ortiq vakillari o'rtasidagi aloqaning maxsus shakllarini, o'zaro aloqada bo'lgan</p>  |

|             |                                 |                         |          |   |
|-------------|---------------------------------|-------------------------|----------|---|
|             |                                 |                         |          | <p>madaniyatlarning axborot almashinuvi va madaniy qadriyatlarini, boshqa millatlarning madaniyati, dini, qadriyatlari, axloqiy munosabatlari, dunyoqarashi va boshqalarni bilish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'zga tili guruhlarda ta'lim oluvchilarning madaniyati, mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlarini, an'analari va boshqalarini ko'p qirrali bilish, ularga o'zbek xalqining madaniyatini samarali yo'llar bilan o'rgatish;</li> <li>- o'zbek tilini dunyo miqyosida targ'ib qilish malakasiga ega bo'lish;</li> <li>- xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o'zbek tilini o'rgatuvchi kurslarda, o'zbek tili va madaniyati markazlarida faoliyat ko'rsatish malakasini egallash.</li> </ul>  |
| <b>1.15</b> | <b>Adabiy o'qish metodikasi</b> | <b>302AO'M<br/>4 10</b> | <b>4</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'zbek tili va adabiy o'qish fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlariga asoslangan holda nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlari olib borilishini ta'minlash;</li> <li>- o'zbek tili va adabiy o'qish fanlarini o'qitish, xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or va samarali usullarni tanlay olish, amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;</li> <li>- o'zbek tili va adabiy o'qish fanlarini o'qitish, xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;</li> <li>- o'zbek tili va adabiy o'qish fanlariga oid nazariy bilimlarini muntazam takomillashtirib borish, mazkur fanlarning dolzarb muammolarini ilg'ay olish,</li> </ul> |

|                          |                                       |              |   |   |
|--------------------------|---------------------------------------|--------------|---|---|
|                          |                                       |              |   | pedagogik faoliyatida ularni ijobiy hal qila olish.   |
| <b>2. Tanlov fanlari</b> |                                       |              |   |   |
| 2.1.1                    | Jismoniy tarbiya va sport             | 302JTS 1 4   | 1 | – sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish ko‘nikma va qobiliyatlariga ega bo‘lish.   |
| 2.1.2.                   | Yosh fiziologiyasi va gigiyena        | 302YFG 1 4   | 1 | – axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish malakalariga ega bo‘lish, xalqaro yozishmalarni va elektron aloqalarni olib borish, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil ravishda asoslangan qarorlar qabul qila olishi;<br>– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o‘z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish. |
| 2.2.1.                   | O‘zbek orfografiyasi va punktuasiyasi | 302O‘OP 1 4  | 1 | – O‘zbek orfografiyasi va punktuasiyasi qoidalaririni bilish va ularga rioya etilishini ta‘minlash;<br>– vazirlik va idoralarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalarini chuqur bilish.   |
| 2.2.2                    | Ilmiy va loihaviy ish yozish asoslari | 302ILIYA 1 4 | 1 | ilmiy va ijodiy ish yozish malakasini egallash; ta‘limiy faoliyatga oid ilmiy-uslubiy maqola va tezislar, ishlanmalar, tavsiyalar tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.  |
| 2.3.1                    | Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish  | 302MMIO‘ 1 4 | 1 | Mutolaa madaniyatiga, ifodali o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.  |
| 2.3.2.                   | Mutolaa san'anti                      | 302MS 1 4    | 1 | Mutolaa san‘ati yuzasidan ma‘lumotga ega bo‘lish, ifodali o‘qish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.  |
| 2.4.1                    | Ritorika                              | 302RIT 1 4   | 1 | Notiqlik san‘ati tarixi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish, adabiy   |


|       |                 |           |   |   |
|-------|-----------------|-----------|---|---|
|       |                 |           |   | manbalarni notiqlik mahorati bilan o'qiy olish.               |
| 2.4.2 | Nutq madaniyati | 302NM 1 4 | 1 | Nutq madaniyatiga ega bo'lish, matnlarni ifodali o'qiy olish. |

ToshDO'TAU o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha prorektori


O'quv-metodik bo'lim boshlig'i

Amaliy filologiya fakulteti dekani

"Amaliy filologiya" kafedrasini mudiri



S. Normamatov



V. Nazarov



S. Muhamedova



B. Mengliyev

| Ur  | Fan nomi                       | Fan kodi* | Fan qo'ri kartida o'qitilishi | Fan yordamida o'qiladigan zaruriy kasbiy kompetensiyalar   |
|-----|--------------------------------|-----------|-------------------------------|--|
| 1.1 |                                | 302XEN.1  | 1                             | shayxona bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lish, ularni muvofiqlik bilan o'qiy olish, kasbiy faoliyatda ularni hisobga olib olish.  |
| 1.2 |                                | 302XEN.2  | 1                             | gumanitar va ijtimoiy fanlar fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy muammalarni va jarayonlarni muvofiqlik bilan o'qiy olish.  |
| 1.3 |                                | 302XEN.3  | 1                             | hazirgi va kelajakdagi davlat siyosatini, o'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan kasbiy faoliyat nuktasini nazarga olib olish.   |
| 1.4 | Xorijiy tillar (ular bo'yicha) | 302X1 1,2 | 1,2                           | xorijiy tillarda bilim kasbiy faoliyatga oid hujjatlar va rahbar tavsiyalarini o'qiy olish, xorijiy hujjatlar bilan og'zaki va yozma muvofiqlik bilan o'qiy olish va ularni talqin qilish va ashorat-kommunikatsiya. |